

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
oktyabr



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr.
2025-yil, 15-oktyabr.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	
TURIZM SOHASIDA RAQOBAT AFZALLIKLARINI YARATISHDA MARKETINGNING ROLI	33
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	37
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH ORQALI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	41
Radjabov Bunyod Abdullilovich	
XXI-ASRDA JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ASOSIY DRAYVERLARI	45
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA JARAYONIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKI	48
Muyassarzoda Fayziyeva	
ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ КАК КЛЮЧЕВОЙ ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ И ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	52
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ИНВЕСТИЦИИ	55
Ягудин Дмитрий Рустамович	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BARQAROR TURIZM RIVOJI: GLOBAL TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	57
Xamdullayeva Gulhoyo Ergash qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INVESTITSION QARORLARNI OPTIMALLASHTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
KORXONA POTENSIALINING MOHIYATI VA TUZILMASIGA OID NAZARIY HAMDA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	61
Djalilov Sardor Sadillovovich	
XALQARO IQTISODIYOTNING GLOBAL DAROMAD TENGSIZLIKLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI: SAVDO SIYOSATLARI VA REDISTRIBYUTSIYA MEKANIZMLARINING TAQQOSLAYDIGAN TAHLILI	64
Kurolov Maksud Obitolovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA YHM O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	73
Zaripova Muqaddas Jumaniyozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORI DINAMIKASIGA TA'SIRI	77
Akmalbek Najimov Umid o'g'li, Dinara Ishmanova	
ПРАКТИКА И АНАЛИЗ КРЕДИТОВАНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ	81
Шамшетьева Гульраушан	



AHOLI DAROMADLARI O'SISHI VA INFLYATSIYA DARAJASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	83
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
KORXONALARDA MAHSULOT SAVDOSIGA OID MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY INTELEKTUAL YONDASHUVLARI	86
Baydullayeva Dildora Tuylibayevna, Baydullayev Ruslan Tuylibayevich	
ELEKTRON TIJORATNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	90
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
RAQOBATBARDOSH ELEKTROTEXNIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA VA INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI	93
Jalolov Abbosxon Ravshanxon	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	97
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
THE IMPACT OF EXTERNAL DEBT, INVESTMENT ACTIVITY, AND CAPITAL FORMATION PROCESSES ON EXPORT VOLUME AND ECONOMIC GROWTH DYNAMICS IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES	102
Tojiqulova Sitora Sobirjon qizi	
HUMAN CAPITAL AND DIGITAL TRANSFORMATION: DRIVERS OF SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT	108
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich	
YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI SOLIQ SIYOSATINI USTUVOR JIHATLARINI MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA QO'LLASH ORQALI SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	110
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH KONSEPSIYASI	114
Turdibayev Abdulaziz Abduvaxidovich	

KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH KONSEPSIYASI

Turdibayev Abdulaziz Abduvaxidovich

O'zsanoatqurilishbank" ATB Toshkent shahar boshqaruvchisi

ORCID: [0009-0008-7997-6546](https://orcid.org/0009-0008-7997-6546)

Email: abdulazizturdiboyev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital tuzilmasining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Bank kapitalining tarkibi, manbalari hamda ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda kapital yetarliligi koeffitsiyenti, leverage darajasi, risklarni boshqarish mexanizmlari hamda Basel III standartlariga asoslangan optimallashtirish yo'nalishlari tahlil etilgan. Shuningdek, O'zbekiston bank tizimi misolida kapital tuzilmasini takomillashtirish bo'yicha konseptual takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kapital tuzilmasi, moliyaviy barqarorlik, tijorat banklari, leverage, risk boshqaruvi, Basel III, kapital yetarliligi.

Abstract. This article analyzes the role and importance of capital structure in ensuring the financial stability of commercial banks. It examines the composition and sources of bank capital and their impact on financial resilience. The study evaluates capital adequacy ratios, leverage levels, risk management mechanisms, and optimization approaches based on Basel III standards. Using Uzbekistan's banking sector as an example, conceptual recommendations for improving capital structure are proposed.

Keywords: capital structure, financial stability, commercial banks, leverage, risk management, Basel III, capital adequacy.

Аннотация. В статье рассмотрена роль и значение структуры капитала в обеспечении финансовой устойчивости коммерческих банков. Проанализированы состав и источники банковского капитала, а также их влияние на финансовую стабильность. В исследовании изучены показатели достаточности капитала, уровень финансового левериджа, механизмы управления рисками и направления оптимизации в соответствии со стандартами Basel III. На примере банковской системы Узбекистана разработаны концептуальные предложения по совершенствованию структуры капитала.

Ключевые слова: структура капитала, финансовая устойчивость, коммерческие банки, леверидж, управление рисками, Basel III, достаточность капитала.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi har bir mamlakat iqtisodiyotining umumiy sog'lomligi va raqobatbardoshligining muhim ko'rsatkichidir. Bank tizimi moliyaviy vositachilikning markaziy bo'g'ini sifatida kapital resurslarini samarali taqsimlash, investitsion loyihalarni moliyalashtirish va pul-kredit siyosatining uzviy mexanizmini ta'minlaydi. Shu bois kapital tuzilmasining optimal shakllanishi bankning moliyaviy barqarorligi, rentabelligi va likvidligi o'rtasida muvozanatni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda banklar o'z faoliyatini kapital yetarliligi, risklarni diversifikatsiyalash va xalqaro prudensial me'yorlarga, xususan Basel III standartlariga mos ravishda tashkil etishga majburdir.

O'zbekiston bank sektorida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar – davlat banklarini xususiylashtirish, ustav kapitalini oshirish, xalqaro kredit reytinglarini joriy etish va xorijiy investorlarni jalb etish – kapital tuzilmasining sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sishning tezlashuvi, kredit portfellarining kengayishi va raqobatning kuchayishi sharoitida kapital manbalarining tarkibini oqilona boshqarish masalasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Bank kapitalining optimallashtirilgan modeli nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki tizimning shoklarga bardoshlilikini oshiradi, barqaror daromadlilikni saqlaydi va investorlarga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarining kapital tuzilmasini optimallashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyotda kredit faolligini barqaror ushlab turish hamda xalqaro standartlarga mos barqaror bank tizimini shakllantirish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi. Mazkur tadqiqot aynan shu yo'nalishda – kapital tuzilmasi elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish va ularning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash orqali tijorat banklari uchun optimal kapital boshqaruvi modelini ishlab chiqishga qaratilgan.



Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi masalasi iqtisodiyotda kapital oqimlarini samarali taqsimlash, kredit tizimi uzluksizligini ta'minlash va moliyaviy inqirozlarning oldini olish nuqtayi nazaridan strategik ahamiyat kasb etadi. Barqarorlikning asosiy tayanchi – bu kapitalning yetariligi, sifati va tuzilmasidir. Kapital tuzilmasi deganda bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan resurslari o'rtasidagi nisbat, ularning shakllanish manbalari hamda risklarni qoplash salohiyatini belgilovchi moliyaviy mexanizm tushuniladi. Bank kapitali nafaqat xavf-xatarlarni sug'urtalovchi tamoyilga asoslanadi, balki u foyda olish imkoniyatlarini kengaytiruvchi va bozor ishonchini mustahkamlovchi iqtisodiy resurs sifatida ham xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklarining kapital tuzilmasini optimallashtirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Omil nomi	Tavsif	Bank moliyaviy barqarorligiga ta'siri	Optimallashtirish yo'nalishi
Ustav kapitali hajmi	Bankning o'z mablag'lari hisobidan shakllantirilgan asosiy kapital manbai.	Kapital yetariligi va investorlar ishonchini ta'minlaydi.	Ustav kapitalini bosqichma-bosqich oshirish, aksiyalar emissiyasini kengaytirish.
Taqsimlanmagan foyda	O'tgan yillardagi sof foydaning kapitalga qayta yo'naltirilgan qismi.	Moliyaviy mustahkamlikni oshiradi va ichki resurslarni ko'paytiradi.	Foydani kapitalizatsiya qilish ulushini oshirish.
Jalb etilgan qarz mablag'lari	Banklararo kreditlar, depozitlar va obligatsiyalar orqali olingan resurslar.	Moliyaviy leverage oshadi, ammo risk darajasi ham yuqorilaydi.	Qarz manbalarining muddat va valyuta tarkibini muvofiqlashtirish.
Subordinatsiyalashgan qarzlar	Kapitalning o'z va qarz elementi orasidagi gibridd moliyaviy vosita.	Barqarorlikni oshiradi, chunki bu mablag'lar uzoq muddatli hisoblanadi.	Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda subordinatsiyalashgan qarzlarini jalb qilish.
Kapital yetariligi koeffitsiyenti (CAR)	Bank kapitalining riskka asoslangan aktivlarga nisbati.	Moliyaviy barqarorlikning asosiy prudensial ko'rsatkichi.	Basel III talablariga muvofiq minimal darajani 10,5% dan past bo'lmashini ta'minlash.
Aktivlar sifati	Kredit portfeli va investitsiyalarning xavf darajasi.	Yomon aktivlar ulushi orsa, kapitalning himoya vazifasi pasayadi.	Risklarni diversifikatsiya qilish, kredit monitoringini kuchaytirish.
Makroiqtisodiy omillar	Foiz stavkalari, inflyatsiya, valyuta kursi, iqtisodiy o'sish sur'atlari.	Tashqi iqtisodiy sharoitlar kapital qiymatiga bevosita ta'sir qiladi.	Kapital strategiyasini iqtisodiy sikl fazalariga moslashtirish.

Jadvalda tijorat banklarining kapital tuzilmasini optimallashtirishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar tizimli tarzda yoritilgan. Tahlildan ko'rinadiki, kapitalning sifat tarkibi va manbalar diversifikatsiyasi moliyaviy barqarorlikni belgilovchi eng muhim mezondir. Ustav kapitali va taqsimlanmagan foyda bankning ichki moliyaviy tayanchini mustahkamlab, investorlar ishonchini oshiradi. Jalb etilgan qarz mablag'lari va subordinatsiyalashgan qarzlar esa kapital bazasini kengaytirish imkonini beradi, biroq ular bilan birga risk darajasi ham ortadi. Shuning uchun kapitalning optimal tuzilmasi o'z va qarz mablag'lari o'rtasida muvozanatni saqlashni talab etadi. Kapital yetariligi koeffitsiyenti (CAR) bankning risklarga bardoshlilikini baholovchi asosiy prudensial ko'rsatkich sifatida alohida ahamiyatga ega. Makroiqtisodiy omillar, xususan inflyatsiya va foiz stavkalari tebranishi kapital qiymatiga ta'sir etgani sababli, kapital siyosatini iqtisodiy sikllarga mos tarzda qayta ko'rib chiqish zarur.

Kapital tuzilmasini optimallashtirish jarayoni, bir tomondan, bankning moliyaviy xavflarini kamaytirish, ikkinchi tomondan esa, rentabellik va bozor qiymatini oshirishga qaratilgan muvozanatni topishni o'z ichiga oladi. Bank kapitalining asosiy elementlari – ustav kapitali, qo'shimcha kapital, zaxiralar, taqsimlanmagan foyda hamda jalb etilgan qarz mablag'laridir. Har bir elementning ulushi bankning strategik maqsadlari, risk darajasi va bozor konyunkturasiga qarab belgilanadi. Agar bank o'z kapitalining asosiy qismini qarz mablag'lari hisobidan shakllantirsa, u holda moliyaviy leverage (moliyaviy turtki) ortadi, biroq bu holat bilan birga risk darajasi ham oshadi. Aksincha, kapitalning katta qismi o'z mablag'laridan tashkil topganda, bank xavfsizroq faoliyat yuritadi, ammo rentabellik pastroq bo'ladi. Shuning uchun optimal kapital tuzilmasini topish – bu xavf va rentabellik o'rtasidagi muvozanatni topish masalasidir.

Nazariy jihatdan qaraganda, Modigliani va Miller tomonidan ilgari surilgan klassik model kapital tuzilmasining kompaniya qiymatiga ta'siri yo'qligini ta'kidlagan bo'lsa-da, amaliy sharoitda soliq imtiyozlari, risklar va moliyaviy bozorning nomukammalligi ushbu nazariyani to'liq tasdiqlamaydi. Ayniqsa bank sektorida kapitalning shakllanishi prudensial me'yorlar bilan qat'iy tartibga solinadi, bu esa kapital strukturasini faqat bozor mexanizmlari orqali shakllantirish imkonini cheklaydi. Basel III standartlari bank kapitalining minimal yetarlilik koeffitsiyenti (CAR) 10,5 foizdan past bo'lmasligini belgilaydi, shu bilan birga, asosiy (Tier 1) kapitalning tarkibi sifat jihatdan kuchaytirilgan bo'lishi shart.

O'zbekiston bank tizimida ham kapital yetarliligi masalasi oxirgi yillarda iqtisodiy islohotlar markazida turibdi. 2020–2024-yillar davomida tijorat banklarining umumiy kapital hajmi 1,5 barobardan ortiq oshgan bo'lsa-da, bu o'sish asosan ustav kapitalini majburiy ravishda ko'paytirish hisobiga amalga oshdi. Ayrim banklarda kapital strukturasida qarz mablag'larining ulushi yuqorilgicha qolmoqda, bu esa ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois kapital tuzilmasini optimallashtirish strategiyasi individual yondashuvni talab etadi: har bir bank uchun aktivlar sifati, risk profili va daromad manbalari asosida eng maqbul nisbat aniqlanishi kerak.

Kapitalning optimal tuzilmasi, birinchi navbatda, aktivlar sifati va risklarni qoplash darajasiga bog'liq. Agar bankning aktivlarida yuqori xavfli kreditlar ulushi katta bo'lsa, u holda kapitalning o'z mablag'lari ulushi orttirilishi kerak. Chunki bu holatda kredit defoltlarining o'sishi bilan bankning to'lovga layoqatsizlik xavfi kuchayadi. Shuningdek, likvidlikni ta'minlash uchun qisqa muddatli majburiyatlar bilan uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirishdan saqlanish zarur. Bunday nomuvofiqlik moliyaviy shoklar davrida likvidlik inqirozini keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, kapital tuzilmasini optimallashtirish nafaqat balansdagi nisbatlarni tahlil qilish, balki aktiv va passivlarni muddatlar va risklar bo'yicha uyg'unlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, kapital tuzilmasining optimalligi bankning rentabelligi bilan ham bevosita bog'liq. Moliyaviy leverage koeffitsiyenti ma'lum darajada oshganida, bankning o'z kapitaliga nisbatan foydasi (ROE) yuqorilashi mumkin. Ammo leverage haddan ortiq oshirilsa, bu barqarorlikni izdan chiqaradi. Shu sababli, kapital tuzilmasini tahlil qilishda riskni o'lchovchi ko'rsatkichlar (VaR, HHI, z-index) bilan birga foydalilik indikatorlari (ROA, ROE, NIM) ham birgalikda ko'rib chiqilishi kerak.

Kapital tuzilmasi tarkibini belgilashda banklarning mulkchilik shakli ham muhim rol o'ynaydi. Xususi kapital ustuvor bo'lgan banklar, odatda, bozor mexanizmlari orqali mablag' jalb qiladi, aksincha, davlat banklari ko'pincha byudjet yoki davlat kafolatli kreditlar hisobiga faoliyat yuritadi. Bu esa ularning riskni boshqarish siyosatida farq keltirib chiqaradi. Xususi banklar uchun kapital optimallashtirish — bu raqobatbardoshlikni oshirish va investor ishonchini saqlash vositasi bo'lsa, davlat banklari uchun bu ko'proq moliyaviy intizomni mustahkamlash va rentabellikni oshirish masalasidir.

Shuningdek, kapital tuzilmasini optimallashtirish jarayonida zamonaviy moliyaviy vositalardan — subordinatsiyalashgan qarzlar, konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar, mezzanin moliyalashtirish kabi gibril instrumentlardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu vositalar kapitalning o'z va qarz komponentlari o'rtasidagi chegarani elastik qiladi va bankka moslashuvchan moliyaviy strategiya yuritish imkonini beradi. Ayniqsa, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda jalb qilinadigan uzoq muddatli resurslar kapital barqarorligini mustahkamlovchi omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston bank amaliyotida kapital tuzilmasi optimallashtirish bo'yicha ba'zi ijobiy tajribalar mavjud. Masalan, "Ipoteka bank" va "Asakabank"ning aksiyalarini xalqaro bozorlarga chiqarish orqali kapitalni ko'paytirish, "Hamkorbank"ning subordinatsiyalashgan qarz liniyalarini jalb etish amaliyoti kapital diversifikatsiyasining muvaffaqiyatli namunalidir. Shu bilan birga, ayrim banklarda taqsimlanmagan foyda ulushi yuqorilgicha qolayotgani, bu mablag'larning samarali qayta investitsiya qilinmayotganini ko'rsatadi. Bu holat kapital aylanish tezligini pasaytiradi va resurslardan foydalanish samaradorligini cheklaydi.

Kapital tuzilmasini optimallashtirishning ilmiy-metodik asosini ishlab chiqishda makroiqtisodiy omillar ham hisobga olinishi zarur. Foiz stavkalari, inflyatsiya darajasi, valyuta kursi tebranishlari va iqtisodiy o'sish sur'atlari bank kapitalining qiymatiga bevosita ta'sir qiladi. Yuqori inflyatsiya sharoitida qarz resurslari arzonlashgandek ko'rinib-da, ularning real qiymati pasayadi, bu esa moliyaviy leverage samaradorligini kamaytiradi. Shu sababli bank kapitalining optimal tuzilmasi doimo iqtisodiy sikl fazalariga mos ravishda qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Moliyaviy barqarorlikka erishishda davlat va regulyatorlarning roli ham katta. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan kapital yetarliligi, likvidlik koeffitsiyentlari va risklarni boshqarish tizimlari bo'yicha belgilangan talablar banklarning kapital siyosatini tartibga soladi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, EBRD, ADB) tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan texnik yordam loyihalari kapitalni boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalarni joriy etishga imkon yaratmoqda.

Kapital tuzilmasini optimallashtirish konsepsiyasi nafaqat individual banklar darajasida, balki butun moliya tizimi barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Banklarning kapital bazasi mustahkam bo'lsa, ular iqtisodiyotdagi shoklarga bardosh bera oladi, kreditlash faoliyatini uzluksiz davom ettiradi va investorlar ishonchini saqlaydi.



Shu bilan birga, barqaror kapital strukturasi ega banklar xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatini kengaytiradi, bu esa mamlakatga xorijiy investitsiyalar oqimini oshiradi.

Yakuniy tahlil shuni ko'rsatadiki, kapital tuzilmasini optimallashtirish bu – faqat iqtisodiy hisob-kitob emas, balki strategik boshqaruv qaroridir. U bankning uzoq muddatli rivojlanish modeli, risk profili, rentabellik darajasi va institutsional ishonch tizimi bilan uzviy bog'liq. Optimal kapital tuzilmasi barqarorlik, moslashuvchanlik va rentabellik o'rtasidagi eng maqbul muvozanatni topishni nazarda tutadi. Shu bois tijorat banklari kapital tuzilmasini tahlil qilishda an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, stress-testlar, prognozli modellar va iqtisodiy kapital baholash usullarini qo'llashlari lozim.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi bevosita ularning kapital tuzilmasining sifat darajasi va optimal nisbatiga bog'liq bo'lib, bu jarayon iqtisodiyotning umumiy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kapital tuzilmasini optimallashtirish orqali banklar risklarni kamaytirish, rentabellikni oshirish va bozor shoklariga nisbatan bardoshlilikni kuchaytirish imkoniga ega bo'ladi. O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda kapital bazasini mustahkamlash, xalqaro standartlarni joriy etish va xususiy sektor ulushini kengaytirish bo'yicha ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsa-da, hali ham kapital manbalarining diversifikatsiyasi, foydani qayta investitsiya qilish samaradorligi va subordinatsiyalashgan moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish darajasi yetarli emas. Shu bois kapital tuzilmasining optimallashtirilgan modelini ishlab chiqish, uni riskga asoslangan boshqaruv tizimi bilan uyg'unlashtirish va banklar faoliyatini iqtisodiy sikllarga mos moslashuvchan mexanizmlar asosida olib borish zarur.

Sohani yanada rivojlantirish uchun, avvalo, kapital shakllanishi jarayonida xalqaro moliya institutlari va xususiy investorlar bilan hamkorlikni kengaytirish, banklarning kapital yetariligi ustidan regulyativ nazoratni takomillashtirish va Basel III talablari doirasida iqtisodiy kapital baholash usullarini to'liq joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, banklar darajasida foydani taqsimlash siyosatini qayta ko'rib chiqish, taqsimlanmagan foydani kapitalizatsiyalash yo'li bilan o'z mablag'lari ulushini oshirish va zamonaviy moliyaviy vositalardan, jumladan konvertatsiyalanuvchi obligatsiyalar hamda mezzanin moliyalashtirish shakllaridan faol foydalanish talab etiladi. Natijada, kapital tuzilmasining optimallashtirish nafaqat banklarning moliyaviy mustahkamligini ta'minlaydi, balki butun mamlakat moliya tizimining raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ernazarov N. S. Issues of Attracting Private Capital to the Banking System of the Republic of Uzbekistan. – Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 2022. – 8. – 200-205.
2. Azlarova A. A. The Banking System of Uzbekistan: Current State and Development Prospects. – Journal of Contemporary Business Law & Technology, Vol. 1, Issue 8, 2024.
3. Hayotbek A. Capital Structure and Profitability in Uzbekistan's Banking Sector. – SJII, 2025.
4. Babasyan D. Late Banking Transitions: Comparing Uzbekistan to Earlier Transition Economies. – ScienceDirect, 2023.
5. Fundamentals of Bank Capital Management. – Zenodo, 2025.
6. Bank Capital Adequacy: International Standards and Uzbekistan's Adoption. – ESICong AMSI Article, 2024.
7. Basel III and International Banking Supervision: Uzbekistan's Experience. – Economics and Innovative Technologies, 2025.
8. "Uzbekistan Financial Sector Reform Project" (World Bank Report). – International Development Association, 2022.
9. "Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program – Detailed Assessment" (IMF). – IMF, 2025.
10. Financial Stability Report – Central Bank of the Republic of Uzbekistan. – T.: CBU, 2022.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100